

3.1. Oylik to'lov **680.000** so'm (olti yuz sakson ming so'm 00 tiyin)ni, SHARTNOMAning umumiy summasi **2 040 000** so'm (ikki million qirq ming so'm 00 tiyin)ni tashkil etadi, ushbu summa SHARTNOMA davrida texnik ko'mak uchun umumiy xarajatlardir.



3.2. SHARTNOMA bo'yicha XIZMATLAR uchun to'lov ushbu SHARTNOMA imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kunidan kechiktirmay ko'rsatilgan xizmatlar uchun oylik abonent to'lovining oldindan 30 foizini to'lash va uni O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlarida ro'yxatdan o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Obuna to'lovining keyingi har oylik to'lovi XIZMATLAR taqdim etilgan oyning 30-kunidan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

3.3. To'lov shartlari buzilgan taqdirda IJROCHI, BUYURTMACHIning korporativ tarmoqdan foydalanishini vaqtincha blokirovka qilishga yoki SHARTNOMAni bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.

3.4. BUYURTMACHI qarzdorlikni yopib, oylik abonent to'lovining 20 foizini to'laganidan so'ng, tarmoqdan qayta foydalanishiga ruxsat beriladi.

#### 4. SHARTLAR VA MUDDATLAR.

4.1. IJROCHI har oyda BUYURTMACHIGA bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani va to'liq kalendar oyi davomida ko'rsatilgan XIZMATLAR uchun hisob-fakturani taqdim etadi. Agar bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va hisob-fakturani yuborgan paytdan boshlab 5 (besh) bank kuni mobaynida BUYURTMACHI o'z e'tirozlarini yozma ravishda taqdim qilmasa, BUYURTMACHI bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomada ko'rsatilgan xizmatlarga rozi deb hisoblanadi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng, BUYURTMACHIdan IJROCHI tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va sifatiga oid da'volar qabul qilinmaydi. BUYURTMACHI ushbu hujjatlar bilan tanishishi shart (bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani, ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-faktura) va ularni keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan imzolashi shart. BUYURTMACHI tomonidan belgilangan muddatda bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani va hisob-fakturani tanishmaslik yoki imzolamaslik uni xizmatlarni o'z vaqtida to'lashi uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

4.2. Hisob-faktura IJROCHI tomonidan oyning oxirgi sanasida hisob-faktura yuborish veb-saytida rasmiylashtiriladi. To'lov sanasi IJROCHIning hisob-kitob hisob-varag'iga mablag' tushgan sana hisoblanadi. SHARTNOMA bo'yicha BUYURTMACHIning hisob-varaqlarini vaqtincha blokirovka qilish davrida pudratchi ushbu SHARTNOMAning amal qilish muddati tugashiga qadar obuna to'lovini olishga haqlidir.

#### 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

5.1. BUYURTMACHI tomonidan SHARTNOMAning 2.1 bandida ko'rsatilgan to'lovlar o'z vaqtida to'lamaganligi yoki hisobvaraqlar va bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalarni belgilangan muddatda tasdiqlamaganda, BUYURTMACHI tomonidan ushbu SHARTNOMA bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganligi uchun IJROCHI BUYURTMACHIning mavjud qarzlari to'languniga qadar qayd yozuvlarini vaqtincha o'chirish xuquqini o'zida saqlab qoladi.

5.2. Ushbu SHARTNOMAda nazarda tutilgan xizmatlarni bajarish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, IJROCHI BUYURTMACHIGA kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash SHARTNOMA majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.3. BUYURTMACHI to'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida ishlar, xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun BUYURTMACHI IJROCHIGA o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Bajarilgan ishlar, xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun BUYURTMACHI IJROCHIGA o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.4. SHARTNOMAda ko'rsatilgan ishlar, xizmatlar sifatsiz bajarilgan taqdirda BUYURTMACHI ishlarni sifatli bajarib berishni talab qilishga haqli. BUYURTMACHIning talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat ichida ish va xizmatlarni sifatli bajarib berishi shart, undan buyon ish va xizmatlarni to'liq bajarib berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar ish va xizmatlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini BUYURTMACHI talab qilishga haqli. Bajarilmagan ish, xizmatlar qiymatini qo'shgan holda, IJROCHIdan bajarilmagan ish va xizmatlarni qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqlidir.

5.5. TARAFLAR SHARTNOMA majburiyatlari xo'jalik yurituvchi sub'ekt mansabdor shaxsining aybi bilan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan, uning tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning pul mablag'lari va boshqa mol-mulki maqsadga nomuvofiq foydalanilganligi aniqlangan, to'lov intizomi buzilgan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt bankrotlikka duchor qilingan yoki SHARTNOMA munosabatlari sohasida boshqa qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning mansabdor shaxsi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlikka, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175, 176-1, 176-2, 212 va 214-moddalariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175, 181, 186, 205, 207 va 209-moddalariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

#### 6. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI.

6.1. Ushbu SHARTNOMAdan kelib chiqadigan barcha nizolar, shu jumladan uning tuzilishi, bajarilishi, bekor qilinishi, yaroqsizligi bilan bog'liq holda, TARAFLARning vakolatli vakillari o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

6.2. Agar kelishuvga erishilmasa, ular kelib tushgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida yozma talabni ko'rib chiqish muddatini belgilash bilan nizolarni hal qilish bo'yicha dastlabki da'vo tartibiga rioya qilish sharti bilan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga ko'rib chiqishga yuboriladi.



## 7. FORS-MAJOR.

7.1. Fors-major holatlari (yong'in, toshqin, zilzila, harbiy harakatlar, epidemiya) yuzaga kelganligi sababli TARAFLAR SHARTNOMA bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

7.2. Fors-major natijasida SHARINOMA bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan TARAF 3 (uch) ish kuni ichida vakolatli organ hujjatlari ilova qilingan holda, ushbu holatlarning paydo bo'lishi va bekor qilinishi to'g'risida boshqa tomonga xabar berishga majburdir.

7.3. Agar fors-major holatlari TARAFLARdan birining 30 (o'ttiz) kundan ko'proq vaqt davomida o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, unda boshqa TARAF bitimni amal qilish muddati tugashidan oldin bekor qilishga haqlidir. Shu bilan birga, SHARTNOMani muddatidan oldin bekor qilish sababli TARAFLAR tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash to'g'risidagi da'volar taqdim etilishi mumkin emas.

## 8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI.

8.1. SHARTNOMA amal qilish muddati 05.01.2022 yildan 31.12.2022 yilgacha. SHARTNOMA imzolanganidan keyin tomonlarda ro'yxatdan o'tgandan so'ng, byudjet tashkilotlarida esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tganidan kuchga kiradi.

8.2. Agar SHARTNOMAni imzolash va BUYURTMACHIlga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan kundan boshlab 20 kalendar kun o'tgan bo'lsa, SHARTNOMA imzolanmagan va IJROCHIlga qaytarilgan bo'lsa, IJROCHI SHARTNOMAni haqiqiy emas (tuzilmagan) deb hisoblash huquqini o'zida saqlab qoladi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng imzolangan SHARTNOMA qaytarilgan taqdirda, IJROCHI SHARTNOMAviy munosabatlarni yangilash huquqiga ega.

8.3. TARAFLAR tomonidan SHARTNOMAning bandlari bajarilmaganligi sababli, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha SHARTNOMA bekor qilinishi mumkin.

8.4. Ikki TARAF ham kutilgan bekor qilish kunidan 10 (o‘n) ish kun oldin boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilib, bitimni bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.

8.5. TARAFLAR bank va pochta rekvizitlari o'zgarishi to'g'risida bir-biriga zudlik bilan xabar berish majburiyatini oladilar.

### 9. BOSHQA SHARTLAR.

9.1. TARAFLAR tomonidan SHARTNOMA imzolanganidan so'ng tuzilgan ilova, bayonnoma, qo'shimcha bitim, boshqa hujjatlar, agar ular taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa, faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilishi va ro'yxatdan o'tkazilishi sharti bilan amal qiladi va SHARTNOMAning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.2. TARAFLAR ushbu bitim, unga qo'shimchalar va qo'shimcha SHARTNOMALAR, hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar dalolatnomalari, shuningdek uni rasmiylashtirish, o'zgartirish yoki tugatish uchun tegishli bo'lgan boshqa hujjatlar bo'yicha belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan qo'l yozuvi va faksimil imzolarning, elektron raqamli imzolarning teng qonuniy kuchini tan olishadi.

9.3. SHARTNOMA bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

9.4. XIZMATLAR hajmi o'zgarganda, shu jumladan yangi shaxsiy kompyuterlar, serverlar va ofis uskunalari ishga tushirilganda, TARAFLAR imzolagan SHARTNOMAg qo'shimchalarga o'zgartirishlar kiritiladi yoki yangi qo'shimchalar yoki qo'shimcha SHARTNOMalar tuziladi.

9.5. SHARTNOMA 2 (ikki) nusxada, Tomonlarning har biri uchun 1 (bitta) nusxada, davlat tilida tuzilgan, ikkala nusxasi ham bir xil qonuniy kuchga ega.

## 10. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI.

## BUYURTMACHI

DOKUMENT

J. U. H. U. R. T. E.

Came from...  
Manzil: Came via P. Dzhurzu 15 Aug  
Tel: 66223 - H-96  
STIR: 203612623 OKED: 97513  
HTR: 100021860184017073201054003  
Moliya Vazirligi Gaznachiligi Calmber, Zuzia Domsa  
STIR: 201922517 MFO: 00014  
ShHV: 123402000300100001010  
Bank nomi: Elchibog'at Bank JSC

Bank nomi: Qashgariy Bank

*Rahbar*

*Yusuf* *Yusuf* *Yusuf*

m.o'.

## IJROCHI

*O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash  
vazirligi "IT-MED" MChJ*

Manzil: Tashkent sh., Shayxontoxur tumani,  
Navoi ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (99871) 2037071.  
e-mail: itmed@ssv.uz  
H/r: 20208000800957658001  
STIR:305926021, OKED: 62020, MFO:00432  
Bank nomi: "Uzsanoatqurilishbank" ATB  
Yashnabod filiali

Direktor V.b  
 Xakimov A.B  
 m.o.

Гориской сукльы



2022 yil "20" avgust dagi  
№ TS- 374 -sonli shartnomaga 1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining korporativ tarmog'iga kirishni tashkil etishda  
vazirligining korporativ tarmog'iga kirishni tashkil etish  
DALOLATNOMA

Toshkent sh.

2022 yil "20" avgust

Keyingi o'rinlarda "BUYURTMACHI" deb ataluvchi J.U.H.U.A.T. sh. C.B. sh. 15 Avg. nomidan  
Navoi asosida faoliyat yurituvchi sepyamov Karimova H. T., bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi «IT MED» MCHJ, keyinchalik "IJROCHI" deb ataluvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi direktor V.b Xakimov Artur  
Bakirovich, boshqa tomondan, bundan keyin birgalikda va/yoki alohida "TARAFLAR" va/yoki "TARAF" deb nomlanadi, bundan keyin "AKT" deb  
nomlanadigan funksional vazifalar va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining korporativ tarmog'iga kirishni tashkil etish uchun  
javobgarlik chegaralarini taqsimlovchi ushbu akti qabul qildi.

IJROCHIning javobgarligi:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Ma'lumotlarni qayta ishlash markazi (SOD)" uzluksiz ishlashini ta'minlash;
2. Korporativ tarmoq pochta serverining (minzdrav.uz) uzluksiz ishlashini ta'minlash.
3. Korporativ tarmoq resurslariga (axborot tizimlari, elektron pochta) BUYURTMACHIning murojaatiga asosan foydalanuvchilarni qo'shish, o'chirish va parollarini yangilash.

BUYURTMACHIning javobgarligi:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining korporativ tarmog'iga ulanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlar (tezligi, aloqa mavjudligi, tunnel protokollari) bilan ajratilgan aloqa kanalini tashkil etish;
2. Signal buzilgan yoki yetishmagan taqdirda ma'lumotlarni uzatish uchun ajratilgan aloqa kanalini qo'llab-quvvatlash va tiklash (BUYURTMACHI - ATC - BUYURTMACHIGA xizmat ko'rsatuvchi aloqa provayderi);
3. Lokal tarmoqni yaratish (zarurat bo'lganda);
4. Lokal tarmoq ish holatini nazorat qilish va boshqarish;
5. BUYURTMACHIlar foydalanuvchilari (xodimlari)ning korporativ elektron pochta orqali kundalik ishlashini ta'minlash;
6. Axborot xavfsizligini ta'minlash.

Tomonlarning "IJROCHI - ATS - Provayder" va "BUYURTMACHI - ATS - Provayder" aloqa kabellarini ulanish nuqtasigacha bo'lgan javobgarligi chegaralarini aniqlash.

1. Texnik jihozlar (agar mavjud bo'lsa) va IJROCHIning provayderining ATSGa uzatuvchi aloqa kabellari.

Javobgar: "IJROCHI - ATC - IJROCHIning provayderi".

2. BUYURTMACHIdan aloqa kabellari IJROCHIning aloqa kabellarini ATSGa ulash joyigacha.

Javobgar: "BUYURTMACHI - ATS - BUYURTMACHIning provayderi".

BUYURTMACHI

J.U.H.U.A.T. sh. C.B. sh. 15 Avg.

Manzil:

Camel sh. R. Kuyumov 15 Avg.

Tel:

66 223-14-96

STIR: 203612620KED: 81513

H/r: 23402000300100001010

STIR: 203612623 MFO: 00014

ShXV: 100021860184017073201054003

Bank nomi: Markaziy bank Xel

Rahbar

Karimova H. T.



IJROCHI

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash  
vazirligi "IT-MED" MCHJ

Manzil: Tashkent sh., Shayxontoxur tumani,  
Navoi ko'chasi, 4-uy.

Tel./faks: (99871)2037071

e-mail: itmed@ssv.uz

H/r: 20208000800957658001

STIR :305926021, OKED: 62020, MFO:00432

Bank nomi: "Uzsanoatqurilishbank" ATB

Yashnobod filiali

Direktor V.b

Xakimov A.B.

m.o'.





### IJROCHIGA TEXNIK TALABLAR:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining korporativ tarmog'ida ishlash uchun yetarli bo'lgan texnik talablarga javob beradigan ish joyini ajratish kerak;
- 2) O'rnatilgan ish joylari bo'lgan xona himoyalangan bo'lishi kerak;
- 3) Ish stansiyalari tuproqqa ulanish orqali himoyalangan elektr energiyasi bilan ta'minlanishi kerak;
- 4) BUYURTMACHIning ish joyidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotlar markaziga ma'lumotlarni uzatishni VPN orqali amalga oshirilishi kerak;
- 5) Kanalning ish stansiyasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining serverigacha o'tkazuvchanligi kamida 512 kbit/sek bo'lishi kerak;
- 6) Ma'lumotlar uzatish kanalining mavjudligi kamida 99% bo'lishi kerak;
- 7) Ish stansiyasiga o'rnatiladigan dasturiy ta'minot:
  - Hyech bo'lmaganda MS Windows7 Professional (Ultimate yoki Enterprise bo'lishi mumkin);
  - kamida MS Office 2013 Professional Plus;
  - Ulanish kuni dolzarb ma'lumotlar bazasiga ega antivirus dasturi.

### BUYURTMACHI

J. V. H. U. A. T. U. C. B. U. 90

Manzil: Chim. ul. B. Pyuruz 15 Bg 4  
Tel: 66 223-11-96  
STIR: 203612623 OKED: 91513  
H/r: 23402000300100001010

STIR: 201422818 MFO: 00014  
ShHV: 100021860184017073201054003  
Bank nomi: Mapraqul bank Tashkent



### IJROCHI

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi  
"IT-MED" MChJ

Manzil: Tashkent sh., Shayxontoxur tumani,  
Navoi ko'chasi, 4-uy.  
Tel./faks.: (99871)2037071  
e-mail: itmed@ssv.uz  
H/r: 20208000800957658001  
STIR :305926021, OKED: 62020, MFO:00432  
Bank nomi: "Uzsanoatqurilishbank" ATB  
Yashnobod filiali

